

**SUDLAR TOMONIDAN GUMON QILINUVCHI, AYBLANUVCHI VA SUDLANUVCHINING HIMOYA HUQUQINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

Rozimov Shoxabbaz Hudaybergenovich

Sudyalar oliy maktabi, jinoyat yo'nalishi bo'yicha 1-guruh tinglovchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi odil sudlov tizimida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoya huquqini ta'minlash mexanizmlari tahlil etilib bunday protsesual mexanizmlarni takomillashtirish bilan bog'liq masalalar, sudlarning vakolatlari hamda vazifalari, sud ishtirokchilarining protsesual va konsitutsiyaviy huquqlari, inson huquqlarining ta'minlanishi va kafolatlari kabi jihatlar tadqiq qilingan. Maqolada himoya huquqini ta'minlashga doir choralar va ularni qo'llashning amaliy jihatlari, sohada yuzaga kelayotgan muammolar yuzasidan atroflicha o'rganishlar o'tkazilib muayyan muhokama va mulohazalar ilgari surilgan hamda xulosalarga asoslangan takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi, sud, himoya huquqi, himoyachi, protsesual huquqlar, inson huquqlari, kafolatlar.

**Аннотация**

В данной статье проанализированы механизмы обеспечения защиты подозреваемого, обвиняемого и подсудимого в системе правосудия Республики Узбекистан, рассмотрены вопросы, связанные с совершенствованием таких процессуальных механизмов, такие аспекты, как полномочия и обязанности судов, процессуальные и конституционные права участников суда, обеспечение и гарантии прав человека. В статье подробно рассмотрены меры по обеспечению права на защиту и практические аспекты их применения, проблемы, возникающие в отрасли, выдвинуты конкретные обсуждения и соображения, а также даны предложения, основанные на выводах.

**Ключевые слова:** подозреваемый, обвиняемый и обвиняемый, суд, право на защиту, защитник, процессуальные права, права человека, гарантии.

**Annotation**

This article analyzes the mechanisms of ensuring the protection of a suspect, accused and defendant in the justice system of the Republic of Uzbekistan, discusses issues related to the improvement of such procedural mechanisms, such aspects as the powers and duties of courts, procedural and constitutional rights of court participants, ensuring and guaranteeing human rights. The article discusses in detail measures to ensure the right to protection and practical aspects of their application, problems arising in the industry, specific discussions and considerations are put forward, as well as proposals based on conclusions are given.

**Keywords:** suspect, accused and accused, court, right to defense, defender, procedural rights, human rights, guarantees.

Mamlakatimizda qonunda belgilangan tartibga ko'ra advokat muayyan shaxsning manfaatlarini himoya qilish topshirig'ini olgan bo'lsa, o'z vakolatlaridan aynan shu himoyasi ostidagi shaxsning zarariga foydalanishga bundan tashqari gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini himoya qilishdan bosh tortishga, agar uni bundan ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) o'zi ozod etmasa, haqli emas, ya'ni bunday bosh tortish yuqoridagi protses ishtirokchilarining qonuniy manfaatlariga bevosita daxl qilganligi uchun hamda ularning himoya huquqlarini buzganligi uchun ham o'z o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi, bunday hollarda sud tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqini zudlik bilan tiklash choralari ko'rilishi lozim va o'z vazifalarini bajairshdan bosh tortgan advokatga nisbatan xususiy ajrim chiqarilishi va uning xatti-harakatlariga tegishli tartibda baho berilishi mumkin.<sup>1</sup>

Jinoiy odil sudlov tizimida eng ko'p inson huquqlari buzilishlari ayniqsa protsessual normalar talablari buzilishidan kelib chiqishini inobatga olgan holda sudlar tomonidan buzilgan huquqlarni tiklash va kompensatsiya qilish masalalari bilan bog'liq ishlarni ko'rish tizimini yanada kuchaytirish va takomillashtirish ushbu yo'nalishda olib borilishi shart bo'lgan muhim vazifalardan sanalishi endi sir emas.

Shu bilan birga shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish protsessual harakati ustidan elektron nazoratning o'rnatilishi ham shu jarayonga nihoyatda katta foyda keltiruvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin. Surushtiruv va dastlabki tergov jarayonida himoyachining surishtiruv va dastlabki tergovda ishtirok etishini ta'minlash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan amalga oshirishi va gumon qilinuvchi ayblanuvchining manfaatlarini himoya qilish majburiyatlarini ijro etishi uchun qulay huquqiy sharoitlarni yaratishidan iboratdir. Mazkur jarayon oqibatida himoyachining jinoyat protsessida bo'lgan qonuniy manfaatlarini so'zsiz ravishda qondirilgan bo'lishi shart. Shaxsni ayblanuvchi tariqasida jalb qilish paytida himoyachini ishtiroki muhim huquqiy ahamiyatga ega.<sup>2</sup>

Shunga asosan himoyachi ayblanuvchiga qo'yilgan ayb va ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlarni o'rganadi va bu savollardan to'g'ri o'rganish himoyani qonunga asosan samarador tashkil etish uchun ish bo'yicha yig'ilgan barcha dalillarni tekshirish kerak va himoyani amalga oshirishga doir barcha protsessual harakatlarni o'tkazilishini voqelikka to'g'ri qonuniy va adolatli bo'lishida tergovchi prokuror va sudni ishontirish kerak. Shunga asosan himoyachi ayblanuvchining shaxsini o'rganish bilan birga uni himoyachi uchun zarur va muhim bo'lgan dalillar bilan ishlashi ular to'g'risida ma'lumotlar

---

<sup>1</sup> Ибрагимова, С. Э. (2019). Международные принципы защиты прав человека и уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан. *Вестник юридического факультета Южного федерального университета*, 6(4), 58-63.

<sup>2</sup> Тон, Л. Г., & Файзиев, Ш. Ф. (2014). Реформирование института защитника в уголовном процессе Республики Узбекистан. In *Современные тенденции развития юридической науки* (pp. 200-205).

olishi va bevosita tergovchi, prokuror va sudning e'tiborini iltimosnoma shaklida ayblanuvchining aybini engillashtiruvchi yoki unga nisbatan e'lon qilingan aybning inkor qilingan dalillarga qaratishi advokatning burchini to'laqonli ravishda amalga oshirishning dalolati sifatida xizmat qiladi.<sup>3</sup>

Ayblanuvchining himoyalani sh huquqi mazkur shaxsga himoyachi tomonidan jinoyat protsessida mavjud bo'lgan dalillarning tushunchasi ta'rifi va ahamiyatini tushuntirishi va uning bu bilimlarini ish bo'yicha haqiqatni aniqlashda ishlatishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'pincha amaliyotda tergovchilar ayblanuvchilardan himoyaga muhtoj emasliklari va himoyani shaxsan o'zlari olib borish imkoniyatiga egaligi to'g'risidagi tilxatlarni to'ldiradilar bu esa himoyalani sh huquqi bilan ta'minglash masalasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.<sup>4</sup>

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo'yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo'l qo'yish mumkin.

Sud tomonidan voyaga yetmagan mahkumga nisbatan, shuningdek, jismoniy yoki ruhiy holati buzilgan mahkumga nisbatan chiqarilgan hukmni ijro etish bilan bog'liq masalalar himoyachi ishtirokida ko'rilishi shartligi prosesual norma darajasida belgilab qo'yilishi himoya huquqini yanada kengroq qo'llanilishidan tashqari himoyachining huquqiy maqomini yanadaq mustahkamlashga xizmat qiladi.

Malakali yuridik yordam olish uchun konstitutsiyaviy huquqni ta'minlash jinoyat protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqliligi printsipining kafolati sifatida ko'rib chiqiladi. Jabrlanuvchining vakilining jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishda majburiy ishtirok etish asoslarini kengaytirish zarurligi (ularni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi himoyachisining majburiy ishtirok etish asoslariga yaqinlashtirish) nuqtai nazari asoslanadi. Ushbu ish doirasida har kimning malakali yuridik yordam olish uchun konstitutsiyaviy huquqi va shaxsiy hayot, shaxsiy va oilaviy sirlarga bo'lgan huquqi, yozishmalar, telefon suhbatlari, pochta, telegraf va boshqa xabarlar siriga bo'lgan huquqi, jinoyat protsessida uyning daxlsizligi huquqi o'rtasidagi munosabatlarning ayrim masalalari ko'rib chiqiladi.<sup>5</sup>

Jinoyat ishida ishtirok etishga tayinlangan advokat fuqaroning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emasligi to'g'risidagi qoidaning mustahkamlab

---

<sup>3</sup> Ибрагимова, С. Э. (2019). Международные принципы защиты прав человека и уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан. *Вестник юридического факультета Южного федерального университета*, 6(4), 58-63.

<sup>4</sup> Тон, Л. Г., & Файзиев, Ш. Ф. (2014). Реформирование института защитника в уголовном процессе Республики Узбекистан. In *Современные тенденции развития юридической науки* (pp. 200-205).

<sup>5</sup> Ибрагимова, С. Э. (2019). Международные принципы защиты прав человека и уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан. *Вестник юридического факультета Южного федерального университета*, 6(4), 58-63.

qo'yilishi esa himoya huquqi ta'minlanishini so'rayotgan shaxsga ushbu huquqni kafolatlovchi norma sifatida maydonga chiqadi.

Xulosa o'rnida shunday mulohazalar mavjudki, ularning aksariyati mavjud mexanizmlarni umumlashtirish va takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Jumladan protsesual normalarda himoya huquqini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlarning amaliy-tashkiliy jihatlarini tartibga solishga qaratilgan normalar tizimining joriy etilishi shbu murakkab sohadagi xatarlarning oldini olish bilan bir qatorda sohada protsesual huquqlarga bo'lgan ishonch va hurmatni oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тон, Л. Г., & Файзиев, Ш. Ф. (2014). Реформирование института защитника в уголовном процессе Республики Узбекистан. In *Современные тенденции развития юридической науки* (pp. 200-205).
2. Ибрагимова, С. Э. (2019). Международные принципы защиты прав человека и уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан. *Вестник юридического факультета Южного федерального университета*, 6(4), 58-63.
3. Алексеева Л.Б. Уголовно-процессуальные функции // Курс советского уголовного процесса. Общая часть / Под ред. А.Д. Бойкова и И.И. Карпеца. М.: Юрид. лит., 1989. – С. 423.
4. Баранов А.М. Уголовно-процессуальная политика России: вчера, сегодня, завтра / <https://cyberleninka.ru/article/n/ugolovno-protsessualnaya-politika-rossiivchera-segodnya-zavtra/>.
5. Вернер Б. Уголовно-процессуальное право ФРГ: Учебник. 6-е издание, с доп. и изм. / Пер. Я.М. Плошкиной: Под ред. Л.В. Майоровой. – Красноярск: РУМЦ ЮО. 2004. – С 16.
6. Даниель У. Ван Несс. Мировой обзор восстановительного правосудия. Доклад, представленный на 11-м Конгрессе ООН по предупреждению преступности и уголовному правосудию. Бангкок. 2005. – С. 2.
7. Калиновский К.Б. Уголовный процесс современных зарубежных государств: Учебное пособие. М.: [http://window.edu.ru/catalog/pdf2txt/547/24547/7100?p\\_page=2](http://window.edu.ru/catalog/pdf2txt/547/24547/7100?p_page=2).
8. Курс уголовного процесса: Учебник / Под редак. дюн, проф. Л.В. Головки. – М.: МГУ им. М.В. Ломоносова. 2017.
9. Мачарашвили Н. Отказ от карательной модели восстановления справедливости: идет ли Грузия по пути международного опыта национального примирения / Кавказ и глобализация. Том 1 (4). 2007. – С. 19.
10. Николаев Г. Мерило Праведное (Заметки о составе памятника) // Православный собеседник. – 2007. – № 1 (14). <http://krotov.info/history/14/2/nikolaev.htm>.
11. Нестор Н.В. Понятие, принципы и формы восстановительного правосудия // Вестник Пермского Университета. 2012, №4 (18). – С. 28.
12. Салтанов Н.В. От кризиса карательной модели правосудия к восстановительному правосудию // Наукові записки ХЕПУ, № 1(20), квітень 2018. – С. 114.
13. Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Уголовный процесс. Учебник для вузов, – СПб.: 2005. – С. 78.
14. Стойко Н.Г., Семухина О.Б. Уголовный процесс в США: Учебное пособие / Краснояр. гос. ун-т. Красноярск, 2000. – С. 16.

- 
15. Сычев Д.А. Содержание и реализация прокурором функций надзора и уголовного преследования в досудебных стадиях уголовного процесса. Дисс... канд. юрид. наук. Москва, «Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации». 2016. – С. 15.
  16. Тушев А.А. Прокурор в уголовном процессе Российской Федерации: система функций и полномочий. Автореф. дисс... докт. юрид. наук. Красноярск, Кубанский госуниверситет. 2006. – С. 4.
  17. УПК Грузии. <https://www.matsne.gov.ge/ru/document/download/90034/37/ru/pdf>.
  18. Халимов С.А. Уголовно-процессуальная политика и уголовнопроцессуальное право / [https://spravochnick.ru/pravo\\_i\\_yurisprudenciya/ugolovnoprocessualnaya\\_politika](https://spravochnick.ru/pravo_i_yurisprudenciya/ugolovnoprocessualnaya_politika).